



A LINGUOPRAGMATIC INTERPRETATION OF COMMUNICATIVE STRATEGIES USED IN FAIRY TALES INTENDED FOR CHILDREN

Marjona Bozorova

First-year Master's student

Email: bozorovamarjona81@gmail.com

Science ID: MNV-0826-0016

Navoi, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: parable, metaphor, didactic, speech act, irony, communication, education, logical emphasis.

Received: 01.08.26

Accepted: 03.08.26

Published: 03.08.26

Abstract: This article analyzes the linguopragmatic features of parables, a unique genre of children's literature, and the communicative strategies used in them. Parables are the most effective means of forming moral and aesthetic ideas in children, and the achievement of certain pragmatic goals through the clarity, imagery, and folk expressions of the language are examined on the basis of examples, and general conclusions are drawn. In this article, the role of intonation, logical stress, and non-verbal means used to express the speech acts of the heroes of the work, their behavior in communication, and emotional states is justified from a linguopragmatic perspective.

BOLALAR UCHUN MO'LJALLANGAN MASALLARDA QO'LLANILGAN KOMMUNIKATIV STRATEGIYALARNING LINGVOPRAGMATIK TALQINI

Marjona Bozorova

Lingvistika (O'zbek tili) mutaxassisligi 1-kurs magistranti

Email: bozorovamarjona81@gmail.com

Navoiy, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: masal, majoz, didaktik, nutqiy akt, ironiy, muloqot, tarbiya, mantiqiy urg'u.

Annotatsiya: Mazkur maqolada bolalar adabiyotining o'ziga xos janri bo'lgan masallarning lingvopragmatik xususiyatlari hamda ularda qo'llanilgan kommunikativ strategiyalar tahlil qilinadi. Masallar bolalarda axloqiy va estetik tasavvurlarni shakllantirishning eng ta'sirchan vositasi

bo‘lib, ularda tilning aniqligi, obrazlilik va xalqona iboralar orqali muayyan pragmatik maqsadlarga erishilishi misollar asosida ko‘rib chiqilib, umumiy xulosalar beriladi. Bunda asar qahramonlarining nutqiy axtlari, ularning muloqotdagi fe‘l-atvori va hissiy holatlarini ifodalashda qo‘llaniladigan intonatsiya, mantiqiy urg‘u hamda noverbal vositalarning roli lingvopragmatik jihatdan asoslab beriladi.

ЛИНГВОПРАГМАТИЧЕСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ КОММУНИКАТИВНЫХ СТРАТЕГИЙ, ИСПОЛЬЗОВАННЫХ В СКАЗКАХ, ПРЕДНАЗНАЧЕННЫХ ДЛЯ ДЕТЕЙ

Марджона Бозорова

Магистрант 1-го курса НИУ

Email: bozorovamarjona81@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: притча, метафора, дидактический акт, речевой акт, ирония, общение, образование, логическое выделение.

Аннотация: В данной статье анализируются лингвопрагматические особенности притч, уникального жанра детской литературы, и используемые в них коммуникативные стратегии. Притчи являются наиболее эффективным средством формирования моральных и эстетических представлений у детей, а достижение определенных прагматических целей посредством ясности, образности и народных выражений языка рассматривается на примерах, и делаются общие выводы. В данной статье с лингвопрагматической точки зрения обосновывается роль интонации, логического ударения и невербальных средств, используемых для выражения речевых актов героев произведения, их поведения в общении и эмоциональных состояний.

Kirish. Zamonaviy tilshunoslikda nutqiy jarayonlarni o‘rganish, xususan, diskurs tahlili va lingvopragmatika yo‘nalishlari mustaqil ilmiy soha sifatida shakllanib, inson muloqotining murakkab mexanizmlarini ochib bermogda. Nutq — nafaqat fikr almashish vositasi, balki shaxsning dunyoqarashi, axloqiy va estetik ideallarini shakllantiruvchi asosiy omildir. Ayniqsa, bolalik davrida nutq rivojlanishi (ontogenezi) uning kognitiv va ijtimoiy adaptatsiyasi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, bu jarayonda badiiy adabiyot, xususan, masal janri alohida o‘rin tutadi

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Masallar bolalar adabiyotining eng ta'sirchan janrlaridan biri bo'lib, ularda tilning aniqligi, obrazliligi va majoziyliigi orqali muayyan pragmatik maqsadlarga erishiladi. Lingvopragmatik nuqtai nazardan, masal matni muallif va yosh kitobxon o'rtasidagi o'ziga xos kommunikativ muloqot maydonidir. Unda qo'llanilgan kommunikativ strategiyalar bolaning nafaqat lug'at boyligini oshirishga, balki unda ijtimoiy muloqot madaniyati va aksiologik (baholash) tushunchalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur strategiyalarni lingvopragmatik asosda tadqiq etish, bolalar nutqining ontogenetik shakllanish qonuniyatlarini tushunish va ta'lim-tarbiya jarayonida samarali metodlardan foydalanish imkonini berishi bilan dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Ilk yoshdagi bolalarning badiiy asarlarni qabul qilishining asosi – bu ularga nisbatan emotsional javob, turli xil ohanglarni ilg'ab olish, ularga munosabat bildirish, imkoniyat darajasidagi adabiy asarlar qahramonlarini tanib olish va ular haqida qayg'urishdir.

Masal janri bolalar adabiyotining o'ziga xos “lisoniy yodgorligi” va “madaniy matni” bo'lib, u bolalarda axloqiy me'yorlarni shakllantirishda beqiyos ahamiyatga ega. Masal matni lingvopragmatik nuqtai nazardan muallif va yosh kitobxon o'rtasidagi o'ziga xos kommunikativ muloqot maydonidir. Unda qo'llanilgan kommunikativ strategiyalar — bilvosita nutqiy aktlar, majoz va didaktik o'gitlar bolaning nafaqat lug'at boyligini oshirishga, balki unda ijtimoiy muloqot madaniyati va aksiologik (baholash) tushunchalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Bolalar nutqida amorf birliklardan murakkab monologik nutq konstruksiyalarigacha bo'lgan transformatsiya jarayonida badiiy asar, xususan, masal matni asosiy rivojlantiruvchi omil bo'lib xizmat qiladi. Masallardagi qahramonlarning nutqiy fe'l-atvori, ularning emotsional-ekspressiv qatlami va peyorativ (salbiy baho) birliklarning qo'llanilishi bolaga yaxshilik va yomonlik kabi tushunchalarni farqlashda pragmatik ko'rsatma beradi. Bolaning boshqalardan ajralib qolishi, kattalar bilan emotsional muloqotlarning yetishmasligi bola hayotining dastlabki oylaridan boshlab uning yetarli darajada rivojlanmasligiga olib kelishi mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda diskursiv tahlil, lingvopragmatik talqin, qiyosiy-tahliliy usullaridan foydalangan holda bola auditoriyasiga mo'ljallangan masallar ko'rib chiqildi. Masallarning kommunikativ-pragmatik imkoniyatlari nutq ontogenezi bilan bog'liq holda yaxlit tizim sifatida tahlil qilindi.

Tahlil va natijalar. Bolalar uchun mo'ljallangan masallarda qo'llanilgan kommunikativ strategiyalarning lingvopragmatik talqini, asosan, didaktik, ya'ni o'git beruvchi maqsadga yo'naltirilgan bo'lib, unda majoz, salbiy baho va nutqiy manipulyatsiya usullari yetakchilik qiladi. Bola masalni tinglaganda undagi qahramonlar bolaning tasavvurida gavdalanadi. Qahramonlarning qisqa va yengil obrazlari, xarakteri va masalning yakunida qahramonlardan

kelib chiqqan holda beriladigan fikr va chiqariladigan xulosa bola ongida holatni baholash va unga xulosa yasay olish qobiliyatini shakllantiradi:

“– E-e, Qarg‘axon, qanday go‘zalsiz! Bo‘y-bastingizga ko‘z tegmasin! Patlaringiz buncha yaltiraydi, tumshug‘ingiz-chi, shunchalar kelishgan! Qani edi, ovozingiz ham shunga yarasha bo‘lsa, siz haqiqiy qushlar podshosi bo‘lar edingiz...” . Lingvopragmatik jihatdan tahlil qilganimizda ushbu masallarda sifatlashlar, mubolag‘a va undov so‘zlar keng qo‘llaniladi. Bolada masal mazmunini tezroq anglash imkonini beradi. Tulki o‘zining persuaziv va manipulyativ strategiyasida xushomad hamda soxta madh etish usulidan ustalik bilan foydalanadi. Bola ushbu matn orqali ijtimoiy muloqotda lisoniy manipulyatsiya va samimiy bo‘lmagan xushomad ortida yashiringan maqsadni anglashni o‘rganadi.

“– Ey jo‘ra, – dedi Toshbaqa chayonning g‘alati harakatini ko‘rib. – Orqamda o‘tiribsan, tinch o‘tirgin. Dumingni u yoq-bu yoqqa sanchaverma, baribir po‘stimga o‘tmaydi, lekin munosabatimizga putur yetadi...”.

Murojaat birligi, ogohlantiruvchi shart va sabab-oqibat konstruksiyalari orqali Toshbaqa suhbatdoshining obro‘cini to‘g‘ridan-to‘g‘ri kamsitmasdan, do‘stona murojaat bilan bilvosita ogohlantirish beradi. Ya‘ni bolaga o‘z xavfsizligi va pozitsiyasini saqlagan holda suhbatdosh bilan tajovuzkorona emas, balki bosiq va vazmin lisoniy muloqot olib borish madaniyati singdiriladi.

“– Qissadan hissa: Mushuk bo‘yniga qo‘ng‘iroq osishni hamma taklif qiladi, ammo uni amalga oshirishga kelganda hamma jimgina tarqaladi. Fikr bildirish boshqa, uni bajarish boshqa...”.

Bunda aksiologik va paremiologik birikmalar orqali bola diqqatini o‘ziga jalb etish maqsad qilinadi. Masal so‘ngida kognitiv xulosa chiqarish va kitobxonga xulq-atvor modelini taklif etish uchun o‘ziga xos strategiya usulidan foydalaniladi. Ushbu strategiya bolaning nutqida xulosa chiqarish, umumlashtirish va sabab-oqibat bog‘liqliklarini lisoniy shakllantirish funksiyasini bajaradi.

“...Boyo‘g‘li Yapaloqqushning uyiga sovrchi bo‘lib borib, rasmi jo darkness binoan so‘z boshladi:

– Ey birodari aziz va qadrdonim! O‘g‘limiz uchun qizingizning gul yuzini so‘rab keldik. Qalin (seplari) uchun ne berasiz va bizdan ne talab qilasiz?

Yapaloqqush kerilib, mag‘rurlik bilan javob qildi:

– Ey do‘stim, mening qizim tengsiz va bebaho. Agar o‘g‘lingiz unga munosib kuyov bo‘laman desa, qaliniga yuzta xaroba qishloq so‘rayman. Shunday xaroba bo‘lsinki, unda birorta ham odam yashamasin, obodlikdan asar ham qolmagan bo‘lsin!”

Ushbu matnda suhbatdoshlar ko‘rinishidan o‘zaro kelishuv va hurmat-izzat ko‘rinishidagi o‘zaro etiket lisoniy birliklaridan foydalanadi. Biroq pragmatik jihatdan ularning muloqoti

jamiyatdagi inqiroz va podshohning adolatsizligini fosh etuvchi bilvosita ironik aktga aylanadi. Matnda qo'llanilgan "xaroba qishloq" tushunchasi boyo'g'lilar olamida "qimmatbaho boylik", insonlar olamida esa "kulfat va vayronagarchilik" sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu kognitiv dissonans bolada shakllanadigan lisoniy birliklarning kontekstual ma'nolarini chaqish va ularda yuzaga keladigan turli dunyoqarash modellari mavjudligini anglash ko'nikmasini o'stiradi.

Matn bola nutqida va tafakkurida subtekstni ya'ni, matn osti ma'nosini ilg'ash, jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni majoz va metafora orqali tahlil qilish hamda muloqotdagi taktik moslashuvchanlikni shakllantirishda muhim kognitiv vosita bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar. Masal matni bolalar uchun nafaqat bilim manbai, balki aksiologik tushunchalarni, ya'ni vaziyatni anglash va unga baho berish ko'nikmalarini shakllantiruvchi pragmatik vositadir. Masallarda qo'llanilgan majoz va antropomorfizm, ya'ni hayvonlarga insoniy xislatlarni berish bolaga murakkab ijtimoiy munosabatlarni sodda va tushunarli tilda anglashga yordam beradi.

Masallardagi qahramonlarning nutqiy harakatlari, ularda kuzatiladigan ayyorlik, maqtanish, takalluf kabi jihatlar bolalar tomonidan qayta hikoya qilish jarayonida o'zaro o'zlashtiriladi. Bu jarayon bolada nafaqat lug'at boyligini oshiradi, balki unda shakllangan monologik nutqning mantiqiy va izchil shakllanishiga asos bo'lib xizmat qiladi.

Masallarda peyorativ, ya'ni salbiy baho birliklarning qo'llanilishi bolalar ongida "yaxshilik" va "yomonlik" o'rtasidagi farqni aniq ko'rsatuvchi pragmatik ko'rsatma vazifasini o'taydi.

Xulosa qilib aytganda, bola auditoriyasi uchun yaratilgan masallarda bola tafakkurini kengaytirish, unda boy dunyoqarashni shakllantirish, matnda nazarda tutilgan ma'noni anglash jarayonida bola turli obrazlar orqali sodda usulda o'z ichki imkoniyatlardan foydalangan holda obrazlarni qayta jonlantiradi. Bu jarayon lingvopragmatik jihatdan bola nutqi shakllanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Gulxaniy. Zarbultmasal. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 2014. – 112 b.
2. Jamolxonov H. O'zbek tili nutq madaniyati va lingvopragmatika masalalari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019. – 220 b.
3. Nishonova Z.T., Alimova G.K. Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2014. – 280 b.
4. Obidjon A. Tanlangan asarlar. I jild. – Toshkent: Sharq, 2018. – 320 b.
5. Yo'ldoshev B., Farmonova S. O'zbek bolalar adabiyotida pragmalingvistik va aksio-lingvistik tadqiqotlar. – Samarqand: SamDU nashri, 2021. – 180 b.
6. Крылов И.А. Басни. – Москва: Художественная литература, 1978. – 208 с.